

## POMIDOR KUYASI (TUTA ABSOLUTA MEYR)GA QARSHI KURASH KURASH CHORALARI.

Abduraxmonov Shuhrat Mamamatmuratovich

Shomurodov Sherzod Chori o'g'li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti assistentlari

**Kalit so'zlar.** Pomidor, preparat, qarshi kurash, pomidor kuyasi, hosil, barg, meva, zararlanish.

**Ключевые слова.** Томат, препарат, борьба, томатная моль, урожай, лист, плод, повреждение.

**Anotatsiya.** Pomidor savzavotlar orasida eng ko'p istemol qilinadigan turdir. Pomidorga hosiliga bir qancha hasharot jiddiy zarar keltiradi. Shular jumlasidan pomidor kuyasi xam barg va mevalarning ashaddiy zarakunandasi xisoblanadi. Ushbu maqolada pomidor kuyasiga qarshi ishlatilgan preparatlar samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Аннотация.** Томат является наиболее часто потребляемым овощем. Серьезный вред томатам наносит ряд насекомых. Среди них томатная моль считается серьезным вредителем листьев и плодов. В данной статье описывается эффективность препаратов, применяемых против томатной моли.

**KIRISH.** Pomidor (*lotincha: Solanum lycopersicum*) bir yillik, tropik iqlimlarda ko'p yillik o't o'simlikdir. Sabzavot ekini sifatida keng ekiladi. Ilmiy terminologiyada **tomat** nomi ishlatilsa-da, O'zbekistonda o'simligi ham, mevasi ham pomidor yoki „pamildori“ (xalq orasida) deb yuritiladi. O'zbekiston 2022-yilning yanvar—sentabr oylarida 11 ta xorijiy davlatga qiymati 45,1 million dollarga teng bo'lgan qariyb 60 ming tonna pomidor eksport qildi. Pomidor eksporti hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 13 ming tonnaga kamaygan. 2022-yilning 9 oyida O'zbekiston eng ko'p pomidor eksport qilgan davlatlar: Rossiya – 29,3 ming tonna; Qozog'iston – 23,8 ming tonna; Qirg'iziston – 6,3 ming tonna; Tojikiston – 513 tonna; Mongoliya – 7,7 tonna; BAA – 2,5 tonna. 9-oyida xorijga eng ko'p pomidor eksport qilgan hududlar:Farg'ona viloyati – 17 ming tonna; Xorazm viloyati – 12 ming tonna; Buxoro viloyati – 6,7 ming tonna. Bundan ko'rinish turibdiki pomidorni zararli organizmlardan himoya qilish dolzarb masalalardan biridir.

Pomidor kuyasi (*Tuta absoluta*) Tangaqanotlilar, yoki Kapalaklar (*Lepidoptera*) turkumi, O'yiq qanotli kuyalar (*Gelechiidae*) oilasiga mansub. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra pomidor kuyasi O'zbekistonda 2015 (joriy) yilda Buxoro, Navoiy va Toshkent viloyatlarida keng, Farg'ona vodiysida kamroq darajada tarqalib ketdi (prof. SH.T. Xodjaev, b.f.n. F. Shamsiddinov). Kuya boshqa viloyatlariga ham o'tib ketgan bo'lishining ehtimoli juda katta. Ba'zi joylarda fermerlar ushbu zararkunandaga qarshi pomidor ekinlariga 20 martagacha dori purkashgan. Eng achinarlisi shuki, dori

purkalgan ekinlardan olingan hosil muddatini saqlamasdan, darhol bozorlarda sotilayapti, buni SES xodimlari nazorat qilishmayapti, natijada bunday pomidorlarni iste'mol qilgan insonlar ko'plab zaharlanayotgan bo'lishining ehtimoli juda katta.

Kuya bilan kuchli zararlangan barglar to'la nobud bo'ladi. Kuya zararlangan pomidor o'simliklarining hosildorligini 80-100% ga pasaytirib, hosilni to'la nobud qilishi mumkin. Zararlanish boshlangan kundan boshlab maydoni 1 ga bo'lgan dalani kuya 2 haftada to'la vayron qilishi mumkin.

Lichinkasi (qurti) endi chiqqanida oqish-sarg'ish tusli, uzunligi 0,5 mm, boshi qora (diagnostik belgi), keyin o'sib, 2-4-yoshlarida nimrang yoki sarg'ish-yashil tus oladi; 4-15 (o'rtacha 8) kun yashaydi va bu vaqtda 4-yosh o'tadi. Etilgan lichinkanining uzunligi 8-9 mm, u ipak o'rab, tuproqqa tushadi va g'umbaklanadi. G'umbaklanishi tuproqda yoki o'simlik qoldiqlari orasida, ba'zan zararlangan va o'ralgan barglar ustida ipaksimon pilla ichida 10 kun davomida o'tadi. Barglarda g'ovak ichida ham g'umbaklanishi mumkin. G'umbagi och-qo'ng'ir tusli, uzunligi 6 mm atrofida. Imago: urg'ochi zotlari 10-15, erkagi 6-7 kun yashaydi. Uzunligi 5-7 mm, qanot yozganida 8-10 mm, tusi qo'ng'ir yoki kumushsimon, old qanotlarida xarakterli qora dog'lari bor, mo'ylovlari ipsimon (tasbehsimon). Zararkunandaning ipsimon (tasbehsimon) mo'ylovlari, old qanotlarida kumushsimon-kulrang tangachalari hamda o'ziga xos qora dog'lari mavjud bo'lishi uni aniqlash uchun hisobga olinadigan eng muhim identifikatsion belgilardan hisoblanadi. Bunday belgilar qatoriga kuya qurtining 1-yoshdan 4-yoshgacha bo'lgan rivojlanishi davridagi belgilari ham kiradi.



Termiz tumanida Pomidor kuyasi bilan zararlangan pomidor barglari.



### Termiz tumanida Pomidor bargidan ajratib olingan kuya lichenkasi.

**Tadqiqot uslublari.** Hisobga olish ishlarida ekin maydonlarining diagonali bo'yicha har 25 metrdan namuna olinadi. Barglarni zararkunandalar bilan zararlanish darajasi – o'simlik qattiq zararlangan vaqtি kuzatiladi. Hisoblashlar olib borishda kuzatiladigan maydonning 10 ta joydan shaxmat usulida ekin maydoni bo'ylab joylashtiriladi va har bir o'simlik (kamida 100) ko'zdan kechiriladi.. 1m<sup>2</sup> dagi zararkunanda soni aniqlash M.S.Gilyarov formulasi asosida olib borildi.

**Tadqiqot natijalari.** Preparatlarni qo'llashning asosiy maqsadi pomidor o'suv davrida kuya lichenkalari va kapalaklarini maksimal darajada yo'q qilishga erishishdir, chunki kuya o'simlikda kechadigan jarayonlarni buzishi va rivojlanishini kechiktirishi mumkin. Pomidor kuyasiga qarshi 14 kunlik qarshi kurash choralarini olib borildi. 2023 yillarda Termiz tumanida o'tkazilgan tadqiqot natijalari, bunda sinalgan kimyoviy preparat kuyalarga qarshi kurashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan tajribalar xulosasiga ko'ra, EMAMATCH s.d.g (*Emamektin behzoat 10% MΦ Lufenuron 5%*) 0,15 – 0,2 kg/ga, sarf meyyorlarida kuyalargalarga qarshi qo'llnanilganda 3 kun o'tib 65,5 %, 7-kunda 88%, 14-kunda 60,5 % biologik samaradorlikka erishildi.



Preparat EMAMATCH



Emamatch preparati tasirida nobud bo'lган pomidor kuyasi lichenkasi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo'jaev Sh.T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 355 b.

2. Xo'jaev.Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. Toshkent:<Navruz> -2015 331 b.
3. Olimjonov R.A. "Entomologiya"-Toshkent: O'qituvchi-1977.4.
4. Murodov S.A. "Umumiy entomologiya kursi".-Toshkent: "Mehnat" - 19865.
5. Kimsanboyev.X.X., O'lmasbayeva R.SH., Xalilov Q.X.-"Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi".Toshkent: O'qituvchi-2002
6. Norboyevich, K. A., & Fayzullayevich, G. B. (2023). RODENT PESTS OF ALFALFA AND EFFECTIVENESS OF PESTICIDES AGAINST THEM. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1227-1231.
7. Ahmad o'g'li, B. S., Baxtiyor, Q., & Bahodir o'g'li, E. J. (2023). Kuzgi tunlam va unga qarshi kimyoviy pestidsitlarning samaradorligi. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 56-58.
8. Absalomovich, S. M., Sulaymanovna, X. S., Ahmad o'g'li, B. S., & Chori o'g'li, S. S. POMIDORDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR TURLARI VA KASALLANISH DARAJASINI ANIQLASH USULLARI.
9. <https://fayllar.org/>
10. <https://www.agropages.com>